

INSONIYAT HAYOTIDA TA'LIMNING O'RNI

O'g'iloy Siddiqova Shavkatovna

Annotatsiya: *Insoniyatning qadr-qimmatini bilim yaratadi. Ilm-fandan hali hech kim zarar ko'rmagan. Bilim olish bu san'at.*

Kalit So'zlar: *Ta'lim, malaka, pedagog, dars berish, ta'lim tizimi, jamiyat, til.*

Abstract: *Knowledge creates the value of humanity. No one has yet been harmed by science. Learning is an art.*

Key Words: *Education, qualification, pedagogue, teaching, educational system, society, language.*

АННОТАЦИЯ: *Знания создают ценность человечества. Наука еще никому не причинила вреда. Обучение – это искусство.*

Ключевые Слова: *Образование, квалификация, педагог, преподавание, система образования, общество, язык.*

KIRISH

Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli tipdagi o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish. va boshqa sohalarda ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi.

Ta'lim o'quvchining bilish qobiliyatini o'stiruvchi asosiy omildir. O'quvchilar qobiliyatini o'stirishga qaratilgan tizimlar muayyan didaktik qoidalar tarzida namoyon bo'ladi. Didaktik tamoyillarda ta'limning mazmuni va jarayonlariga qo'yilgan talablar belgilanadi (qarang Didaktika). Ta'limning maqsadi va vazifalari ijtimoiy tuzum, shuningdek muayyan o'quv yurtlari funksiyasiga muvofiq tarixan o'zgarib boradi. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan „Ta'lim to'g'risida“ gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim tizimining barcha yo'nalishlarini takomillashtirish va rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. 1996-yildan boshlab lotin imlosiga asoslangan yangi o'zbek alifbosi joriy etildi va shu yildan boshlab yangi yozuv asosida dasturlar, qo'llanmalar va darsliklar yaratishga kirishildi, o'qituvchilar lotin imlosi asosidagi yangi o'zbek alifbosi bo'yicha qayta tayyorlash kurslaridan o'tkazildi. Xalq ta'limi bo'limlari qoshida bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarligini belgilaydigan „Tashhis markazlari“ tashkil etildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA MEDATOLOGIYASI

Ta'lim mohiyat-e'tibori bilan dars berish jarayonini, ya'ni pedagog (o'qituvchi) faoliyatini, umuman o'quvchining bilish, o'rganish faoliyatiga rahbarlik qilishni hamda uqish jarayonini, ya'ni o'quvchi faoliyatini bildiradi. Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi - o'qituvchi va ta'lim olayotgan o'quvchilar faoliyatining yig'indisidan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsning sifatlari, dunyoqarashi, qobiliyati o'sadi. Ta'lim avlodlar o'rtasidagi ma'naviy vorislikni ta'minlaydi: kishilarning ijtimoiy-tarixiy tajribalari yosh avlodga ta'lim orqali o'tadi.

Ta'lim nima uchun muhim?

Ta'lim nima ekanligi haqida juda ko'p turli xil tushunchalar va ta'riflar mavjud, ammo bitta narsani umumiy qabul qilish mumkin, bu ta'limning muhimligi va buning sabablari.

1.Barqarorlikni ta'minlaydi.

Ta'lim hayotda barqarorlikni ta'minlaydi va hech kim uni sizdan hech qachon tortib ololmaydigan narsadir. Yaxshi ma'lumotga ega bo'lish va diplomiga ega bo'lish orqali siz yaxshi martaba imkoniyatlariga ega bo'lish imkoniyatingizni oshirasiz va o'zingiz uchun yangi eshiklarni ochasiz.

2.Moliyaviy xavfsizlikni ta'minlaydi.

Barqarorlikdan tashqari, ta'lim moliyaviy xavfsizlikni ham ta'minlaydi, ayniqsa bugungi jamiyatda. Yaxshi ta'lim yuqori maoshli ishga olib keladi.

3. Tenglikni ta'minlaydi.

Butun dunyo haqiqatan ham teng bo'lishi uchun uni ta'limdan boshlash kerak. Agar hammaga ta'lim olish uchun bir xil imkoniyatlar berilsa, ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi tafovut kamroq bo'lar edi. Har bir inson yuqori maoshli ishlarda teng imkoniyatga ega bo'lishi mumkin.

4.Mustaqillikni ta'minlaydi.

O'qigan inson hech qachon boshqalarni fikriga qaram bo'lmaydi.O'zining shaxsiy fikri bo'ladi.

Umuman, tarbiya so'zida yoshlarni (ham jismonan, ham axloqan, ham aqlan) barkamol avlod sifatida tarbiyalash tushuniladi. Ya'ni sodda qilib aytganda, "tarbiyali bola" barkamol avlod demakdir. O'zbek tilining izohli lug'atida tarbiya so'zi arabcha so'z bo'lib, "rivojlantirish, parvarish qilish, o'stirish; o'rgatish; ilm berish" singari bir qator ma'nolarni anglatishi yozilgan. Izohli lug'atni sinchiklab o'rganganimizda "ta'lim" so'zidan ko'ra "tahsil" so'zi ham kengroq ma'noni ifodalaydi.Aqliy va axloqiy tarbiya mushtarakligiga xalqimiz azaldan o'ta zukkolik bilan yondashgan.Talim tizimi jamiyatni rivojlantiradi.Talim olish jarayonining eng muhim bosqichi bu tarbiya hisoblanadi.Abdulla Avloniy aytganidek: „ Tarbiya biz

uchun yo hayot-yo mamot,yo najot-yo halokat,yo saodat-yo falokat masalasidir". Tarbiyaning maqsad-mohiyati davrlar o'tishi bilan o'zgarmaydi, barcha millat uchun ham bir darajada ahamiyatli.

XULOSA

Pedagogik jarayonda axloqiy tarbiyani ham, ta'lim tizimidagidek (davlat ta'lim standartlari singari) uzluksizlik talablaridan kelib chiqib shakllantirish qanchalik katta va murakkab masala bo'lsa-da, amalga oshirish lozim. Albatta, ma'naviy-axloqiy tarbiya tushunchalarini qolipga solib bo'lmaydi, ammo talablar shaklida hayotdan ajralmagan holda ifodalash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ta%CA%BClim>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-limning-jamiyatdagi-ahamiyati>
3. Kholmatov, S. Z. O., & Mushtariybegim, Y. M. Q. (2022). IMPORTANCE OF WORDPLAY IN ENGLISH LANGUAGE (IN THE EXAMPLE OF PUN). *Academic research in educational sciences*, 3(6), 869-873.
4. kizi Shermamatova, S. U. NEOLOGISMS IN MODERN UZBEK AND ENGLISH AND THE HISTORY OF THEIR ORIGIN.
5. Shavkatovna, A. N., & Sharifovna, S. M. (2022). The Role of Electronic Resources in English Language Teaching. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, 2(4), 79-83.
6. Ozbekiston Milliy Ensiklopediyasi(OzME).Birinchi jild.Toshkent,2000
7. Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41 -moddasi
8. Jaloliddin Rumiy "Hikmatlar"